

**YOSHLAR HUQUQIY ONGINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY
MEXANIZMLARI**

Sattorov Dilshod Yuldashevich

Ilmiy rahbar- bojxona instituti o'qituvchisi

Navro'zov Jasurbek Baxtiyor o'g'li

Bojxona instituti 1-kurs

425-guruh kursanti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2026

Revised: 14.01.2026

Accepted: 15.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Davlat huquqiy
siyosati, Huquqiy
ijtimoiylashuv, Huquqiy
madaniyat, Huquqiy
ong, Huquqiy tarbiya,
Yoshlar huquqiy
maqomi*

Mazkur maqolada yoshlar huquqiy ongini yuksaltirishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Huquqiy ongning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, yoshlarning huquqiy bilim va huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim tizimi, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda davlat va jamoatchilik institutlarining roli yoritiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar huquqiy ongini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan islohotlar va ularning samaradorligi ochib beriladi

Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakli; jamiyat a'zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o'z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o'z ichiga oladi. Alohida shaxs, guruh va jamiyatning Huquqiy ongi ajratib ko'rsatiladi. Huquqiy ong huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan tashkil topgan. Huquqiy mafkura — har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aksini topgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi. Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma'naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Huquqiy mafkura — shaxsning Huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, odamning huquqqa bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir qiladi. Huquqiy psixologiya — huquqiy hodisalarni hissiyot bilan anglashdir. Odam ijtimoiy hodisalarni, jumladan, huquqiy munosabatlarni nafaqat aql bilan, balki sezgi bilan ham tushunib yetadi.[1]

=====

Huquqiy ong jamiyatning huquqiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, u shaxslarning huquqiy normalarga munosabati, huquqni anglash darajasi hamda qonuniy xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar huquqiy ongining rivojlanganligi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodda huquqiy bilim, huquqiy mas’uliyat va qonunga hurmat ruhini shakllantirish huquq ustuvorligini ta’minlashning barqaror mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jahon miqyosida huquqiy ongni, xususan, yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish masalasi demokratik boshqaruv, inson huquqlarini ta’minlash va barqaror ijtimoiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda qaralmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasida huquqiy ta’limning uzluksizligi, huquqiy ijtimoiylashuvning institutsional mexanizmlari, raqamli huquqiy axborot tizimlari hamda fuqarolik faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv usullar yoshlar huquqiy ongini shakllantirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro huquqiy hujjatlar va global tashabbuslar yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishni huquqiy davlat qurilishining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish davlat huquqiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida huquq ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va yoshlarni huquqiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli huquqiy platformalarni joriy etish hamda yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish ushbu yo‘nalishdagi zamonaviy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, yoshlar huquqiy ongini yuksaltirishning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda milliy va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish bugungi kun huquqshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi asosiy huquqiy asoslardan biri “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Mazkur qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning huquqiy madaniyatini oshirish hamda jamiyat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni belgilaydi.[2]

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida jamiyat a’zolarining, ayniqsa yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni ushbu sohada davlat siyosatining yangi

bosqichini boshlab berdi. Mazkur farmon huquqiy ongni shakllantirishga doir chora-tadbirlarni tizimli, uzluksiz va kompleks asosda amalga oshirishni nazarda tutadi.

1. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o’rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;[3]

aholi o’rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;[4]

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;

yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.[5]

2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida ijtimoiy davlat tamoyillarining kuchaytirilishi ham yoshlar huquqiy ongini yuksaltirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim

=====
olish huquqi, shaxsning erkin rivojlanishi, ijtimoiy himoya va davlat tomonidan yoshlar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashga oid konstitutsiyaviy normalar yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvini ta‘minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu normalar yoshlarni jamiyatning to‘laqonli va mas‘uliyatli a‘zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.[6]

Shuni aytishimiz kerakki, jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirish davlat huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib, u yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat yoshlarning huquqiy ongini shakllantirib, ularning qonunlarga hurmat va huquqiy mas‘uliyatini mustahkamlaydi. Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan yoshlar huquqiy maqomi esa ularning huquqiy faolligi va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta‘minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar huquqiy ongining rivojlanishi jamiyatning barqaror huquqiy muhitini yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat yoshlarni faqat qonunlarni biluvchi shaxs emas, balki ularni amalda hurmat qiladigan, huquqiy mas‘uliyatni anglaydigan faol fuqaroga aylantiradi. Huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni orqali yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini egallaydi, ularning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqiy maqomi esa bu jarayonni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, yoshlar huquqiy ongining yuksalishi mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma‘qullangan,Toshkent sh., 2016-yil 14-sentabr,O‘RQ-406-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

"Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish" to‘g‘risida farmoni, PF-5618-son 09.01.2019-yil.

3.https://uz.wikipedia.org/wiki/Huquqiy_ong

4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel(yangi tahrir), Toshkent sh.